

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**X.P.Jurayev**

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xiva xonligida yer egaligi tizimi va uning o'ziga  
xos jihatlari.....285

**Sh.Sh.Jumayev**

Farg'ona viloyatidagi yevangel xristian baptistlar jamoasi tarixi va bugungi kundagi  
faoliyati .....293

**K.Abdurakhmanova, M.Jurabekova**

Reflection of folk medicine in the elements of primitive religion  
(the example of Jizzakh) .....297

---

**ADABIYOTSHUNOSLIK****S.Mirzaeva, N.Y.Usarova**

A comparative analysis of the characters of king Arthur and Alpomish in english and  
uzbek folklore literature .....301

**A.G.Sabirdinov**

Jadidchilik, muxtoriyat, mustaqillik .....307

**G'.O.Xolbutayev**

Askiya-so'z san'ati, hozirjavoblik va zukkolik mahorati .....310

**O.Barziyev, F.Baxtiyor**

Sayohat taassurotlari bilan bog'liq poetik turkumlar tasnifi .....317

**S.A.Xodjayev**

Folklor namunalarida uchlik timsoliga asoslangan ramzlar .....323

**H.K.Сабиров, В.А.Гиёсова**

Движение джадидизм и узбекская детская литература .....326

**G.Ch.Muratova**

G'.G'ulomning "Shum bola" qissasida qahramon ruhiy olami tasviri .....329

---

**TILSHUNOSLIK****N.R.Gafurova**

O'zbek va ingлиз tillaridagi o'zlashma so'zlar va neologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari .....333

**Q.Sh.Kaxarov, D.M.Dehqonova**

O'zbek va ingлиз tillarida iboralarning qo'llanishi .....338

**Y.E.Ro'ziboyeva**

Ingliz va o'zbek tillaridagi estetik qadriyatlarni ifodalovchi maqollarning  
lingvakulturologik xususiyatlari .....341

**N.R.Gafurova**

Neologizmlarning tarjimada ifodalanishi va o'ziga xos xususiyatlari .....344

**M.G.Khoshimov**

Problems of general and typological theory of composite sentence with a parenthetical  
clause as an invariant type of syntactic unit .....347

**D.M.Yuldasheva, M.A.Ermatova, N.U.Abdumalikova**

Jahon tilshunosligida matn taddiqi haqida .....354

**M.M.Aslonov**

The educational process and content of educational activities in the  
"House of Bukhara education" .....358

**Z.V.Alimova**

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi forsiy sinonimlar xususida .....362

**G.R.Mamadalieva**

Ingliz va o'zbek tillarida "Foot/Oyoq" leksemalarining semantik tahlili .....367

**P.Sh.Kaxramonova**

Badiiy asar tili va ekolingvistika .....373

**H.U.Davlatova**

Muloqotning nazariy asoslari hamda sohaga oid qarashlar .....376

**H.U.Davlatova, H.Abdurahmonova**

Milliy muloqot kompetensiyasini shakllantirish omillari .....380

**Z.V.Alimova, M.Rasulova**

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "FOOT/OYOQ" LEKSEMALARINING SEMANTIK TAHLILI

### SEMANTIC ANALYSIS OF "FOOT/OYOQ" LEXEMES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

#### СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЛЕКСЕМ "FOOT/OYOQ" В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

**Mamadalieva Gulro' Ravshanovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

#### *Annotatsiya*

*Ushbu maqolada qarindosh bo'limagan ikki til – ingliz va o'zbek tillarida "foot/oyoq" leksemalarining struktur-semantik tahlilini chog'ishtirma aspektida komponent tahlil metodi asosida yoritib berish maqsad qilingan. Ma'lumki, struktura shunchaki elementlar yig'indisi emas, balki bir-biriga bog'liq bo'lgan elementlardan tashkil topgan, o'sha elementlararo aloqalar orqali mavjud bo'lgan bir butunlikdir. Izlanishlar natijasida "foot/oyoq" sememasining ierarxik asosda tarkibiy semik komponentlari – yadro va periferik semalari aniqlandi, qolaversa, foot/oyoq leksemasingen potensial semalarini aniqlashga ham muvaffaq bo'lindi. Foot/oyoq leksemalarining ierarxik tartibdagi semantik tahlili uni ko'p ma'noli so'z sifatida tadqiq qilishimiz bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal qilishimizda ahamiyatga ega.*

#### *Аннотация*

Данная статья посвящается структурно-семантическому анализу лексемы "Foot/Oyoq" в двух неродственных языках – английском и узбекском в сопоставительном плане, с использованием метода компонентного анализа. Нам известно что структура – это не просто набор элементов, а целое, составленное из взаимосвязанных элементов и существующее благодаря межэлементным связям. В результате исследования был определен состав сем "foot/oyoq" в иерархическом порядке, в результате чего были выявлены ядерные и периферийные семы, а также удалось определить потенциальные семы лексемы foot/уюқ. Иерархический семантический анализ лексем foot/уюқ, несомненно, является необходимым шагом в решении задач, связанных с их исследованием как многозначного слова.

#### *Abstract*

*This article is devoted to the structural-semantic analysis of the lexeme "Foot/Oyoq" in two unrelated languages – English and Uzbek in a cross-sectional aspect, using the method of component analysis. As a result of research, the composition of the "foot/oyoq" sememes was determined in a hierarchical order and, as a result, peripheral and potential semes were managed to identify. Semantic analysis of the lexemes "foot/oyoq" is considered to be as a necessary step in solving problems associated with their study as a polysemantic word.*

**Kalit so'zlar:** semantik tahlil, komponentli tahlil metodi, leksema, leksik-semantik variant, denotat, semema, sema, arxisema, integral sema, differensial sema, konnotativ sema

**Ключевые слова:** семантический анализ, метод компонентного анализа, лексема, лексико-семантический вариант, деномат, семема, сема, архисема, интегральная сема, дифференциальная сема, коннотативная сем.

**Key words:** semantic analysis, method of component analysis, lexeme, lexical-semantic variant, denotation, seme, archiseme, integral seme, differential seme, connotative seme.

#### KIRISH

Konseptni verballashtiruvchi leksik birliklarni tadqiq qilish ma'lum bir ma'noda konseptlarning tushunchasi tarkibini ochib berishiga xizmat qiladi. Biroq konsept faqatgina tushunchalar bilangina chegaralanib qolmaydi va yoki bu leksik birlikning barcha leksik - ham denotativ, ham konnotativ ma'nolarini o'z ichiga oladi. Konsept yakka, shaxsiy, guruhiy, milliy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Shu tariqa u ko'plab so'zlarning ma'nolariga asoslanadi va nafaqat so'zda, balki so'z birikmalari, iboralar, mimika va imo-ishoralarida ham o'z aksini topadi. Somatik makon doirasida bir tarafdan semiologik mazmundagi tana harakatlarining leksik birliklari orqali havola etiladigan, boshqa taraflama esa "tana metaforalari" orqali namoyon bo'ladigan ikki mikrosistemani o'z ichiga oluvchi madaniyat kodi shakllanadi. Ingliz va o'zbek tillarida "foot"/"oyoq" somatik konsepti o'zining ko'p funksionalliligi va keng qamroviligi bilan alohida ajralib turuvchi somatik konseptlar sirasiga kiradi. Ingliz tilida "tana a'zosii" leksik-semantik guruhining "leg" nomli konstituenti tarkibiga kirish bilan bir qatorda, o'zining ishlatalish chastotasiga ko'ra "foot" leksemasi leksik-semantik maydonning asosiy reprezententi sanaladi. Ushbu lug'aviy-semantik guruh (keyingi qatorlarda LSG)ga mansub leksik birliklar semantik jihatdan keng tarqalgan so'zlar hisoblanib,

keng ko'lamdagi birikish xususiyatiga ega bo'lib, nutqiy iste'mol kontekstida o'zining semantik hajmini kengaytira oladi va natijada ma'no struktururasi kengayadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI**

Professor A.Nurmonov struktur tahlil haqida shunday deydi: "Sistemaviy-struktur tahlil an'anaviy tilshunoslik natijalariga tayanadi. O'rganilayotgan obyekt haqida bevosita sezgi a'zolarimiz bergan ma'lumotlar asosida olingen amaliy bilim keyingi nazariy, ilmiy bilim uchun poydevor bo'ladi. Ayni paytda nazariy bilim xulosalari amaliy bilimning ojiz, cheklangan tomonlarini to'ldiradi. Har ikki bilimning qo'shiluvi o'rganilayotgan obyektni chin bilish imkoniyatini beradi"(1:136).

Semantik tahlil kognitiv hodisa sifatida tushuniladigan ma'lum bir leksema ma'nosining rivojlanishini tushunishga yordam beradi. **Ma'no** voqelikni inson ongi tomonidan aks ettirish va anglash natijasi bo'lib, til belgilari bilan ifodalanadi (2:9).

T.V.Matveyevaning "Lingvistik atamalar lug'ati"da so'zning semantik tarkibi (strukturasi)ga quyidagicha ta'rif beriladi: "So'zning semantik tarkibi bu – so'z leksik ma'nosining qurilmasisidir. So'zning semantik tarkibi to'g'risidagi tasavvur ma'noni eng kichik bo'linmas komponentlar-semalarga ajratish yo'li bilan amalga oshiriluvchi semantik komponentli tahlil asosida paydo bo'lgan. ... Ko'p ma'noli so'zning ma'nosini murakkab tizimni o'z ichiga oladi. Bunday so'zning har bir alohida ma'nosini, yoki leksik-semantik varianti, bir ma'noli so'z kabi, semali tizim sifatida ko'rib chiqilishi mumkin" (3:406).

Ma'noning semik tahlili va semik tasviri ma'no jihatdan yaqin leksik birliklarining guruhlari orasida juftlashtirib-chog'ishtirish yo'li bilan so'zlar ma'nosidagi differensial va integral semalarni ajratib olishdan iborat bo'lgan komponentli tahlil metodini ishlatishni taqozo etadi.

Sememalarni semantik belgilarga bo'lish fikri Yelmslev tomonidan bildirilgan edi. U ma'nolar ifoda planiga ko'ra mos korrelyatlari bo'limgan shakllarga bo'linishi mumkin, deya hisoblagan (4:130). Bu g'oyaning rivojlanishi semalar haqidagi ta'limotning va bizning davrimizga kelib, so'z ma'nosini tahlil qilishning asosiy usullaridan bo'lgan komponent tahlil usulining yaratilishiga olib keldi.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

So'zning obyektiv borliqdagi narsa va hodisalar haqidagi birlamchi ma'nosini so'zning *leksik* yoki *denotativ ma'no* deyiladi. Masalan: *non-oziq-ovqat, keldi-harakat*. So'zning leksik ma'nosining o'zak negizida bo'ladi. Taniqli tilshunos olim A.Xojiyev leksik ma'noga quyidagicha ta'rif beradi: "So'zlarning material qismi (leksika) bildiradigan ma'noga, ya'ni ma'lum tovushlar kompleksini ma'lum obyektiv voqelikka bog'lash bilan kishi ongida yuzaga keladigan mazmun-mundarijaga *leksik ma'no* deyiladi" (5:45).

*Leksema* – so'zning grammatik ma'no bildiruvchi qo'shimchalarsiz qismi. V.V.Vinogradov bu haqda shunday yozadi: "So'z ma'nosini u orqali ifodalanayotgan predmetdan va atash vazifasining predmetga mutanosibligidan uzoqqa ketmaydi. Tilshunoslikda leksema – so'z vositasida *nomlanuvchi voqelik, narsa-buyum, denotat, ba'zan referent* deb atalishi ma'lum" (6:75). Professor A.Sh.Sobirov denotat xususida quyidagi fikrni bildiradi: "*Denotat* hissiy va nazariy bilish natijasida bir turdag'i narsalarning umumiyligi va xususiy belgilari ichidan ajratib olingen minimal qiymatdir" (7:60).

"Oyoq" konseptini tadqiq qilish jarayonida biz leksemadan konsept tomon harakatlanamiz. Shu sabab, asosiy vazifalarimizdan biri "oyoq" konseptini verballashtiruvchi otlarning semantik va konseptual tahlilidir, tadqiqot natijalarini tizimlashtirish uchun esa biz tomonimizdan maydon va komponentli tahlil usullari qo'llaniladi.

Oxford Advanced Learner Dictionary (8:615) , Collins English Dictionary, Cambridge English Dictionary kabi izohli lug'atlarda *foot* leksemasining leksik-semantik variantlari miqdori 5 tadan 6 tagacha, Merriam-Webster Third New International Dictionary (2002) da esa 15 tagacha farqlanadi. Lug'aviy ta'riflar, shuningdek, sintaktik, morfologik va leksik birikuvlarni tahlil qilgan holda *foot* leksemasining 4 ta asosiy leksik-semantik varianti (keying o'rinnlarda LSV) ni farqlash o'rini deb hisoblaymiz:

LSV 1 - oyoqning inson yoki hayvonni tikka tutib turuvchi yoki yurayotganda bosadigan to'piqdan pastki eng quyi qismi.

LSV 2 - tik narsaning quyi qismi.

## TILSHUNOSLIK

LSV 3 - o'rinning oyoq tarafda joylashgan qismi.

LSV 4 - 12 dyum (30.48 sm)ga teng o'ichov birligi.

Leksemaning alohida ma'nosi semema yoki lug'aviy-semantik variant (LSV) deyiladi. Ushbu sememalardan har birini nomlanayotgan predmetning ma'lum bir belgisiga mos keluvchi yanada kichikroq ma'no birliklariga – semalarga bo'lish mumkin. Masalan: foot leksemasining 1-sememasini semalarga bo'lamiz:

LSV 1: part of the body; the lowest part of the leg, below the ankle, on which a person or an animal stands:

- 1) part of the body – tana a'zosi;
- 2) the lowest part of the leg – oyoqning eng quyi qismi;
- 3) below the ankle – to'piqdan pastki;
- 4) on which a person or animal stands – odam yoki tik turuvchi hayvon

Bunday mikrokponentlarning har birini semalar deya atash qabul qilingan.

Sema so'zi grekcha "belgi" ma'nosini anglatib, ular leksik ma'no (semema)ni hosil qiluvchi eng kichik ma'no bo'laklaridir. Yuqorida ko'rib o'tilgan, *Foot LSV* 1ning 4 ta semasi mavjud: part of the body+the lowest part of the leg+below the ankle + on which a person or animal stands = 4 ta sema.

Lug'aviy ta'riflarga ko'ra, o'zbek tilidagi oyoq leksemasining 6 ta leksik-semantik variantlari mavjud( 9:89):

LSV 1: Odam, hayvon, qush va umuman jonli organizmlar gavdasining tayanib turishi va yurishi yoki o'rmalashi uchun xizmat qiladigan a'zo.

LSV 2: Stol, stul, so'ri, karavot kabi buyumlarning yerga tayanib turadigan qismi, poyasi.

LSV 3: Oxir, odoq.

LSV 4: Fasl, davr va sh.k.ning oxiri, tugayotgan payti.

LSV 5: Chet, chekka, quyi tomon, etak.

LSV 6: Uyning, xonaning eshikka yaqin o'rni; poygak; antonim. to'r.

1-LSVni semalarga ajratamiz: 1) gavdani tayab turuvchi; 2 ) yurishi uchun xizmat qiluvchi ; 3) o'rmalashi uchun xizmat qiluvchi; 4) tana a'zosi

Leksik ma'no o'z strukturasiga ega ekan, undagi semalar ham o'ziga xos ierarxiyani tashkil etadi. So'z ma'nosi (lug'aviy ma'no) lug'aviy birliklarining ma'no komponentlarini biz quyidagi holatdan kelib chiqib ajratamiz: *semalar* – lug'aviy ma'noning ma'lum bir yo'sinda sememaga birlashtirilgan minimal komponentlaridir. Semalar sememalarning semantik maydonda joylashish mavqeyiga qarab *arxisema*, *integral sema*, *differensial sema* va *potensial sema* kabi tiplarga bo'linadi va ular ierarxik tartibdagi o'rniqa qarab turlicha vazifa bajaradi. Buning uchun ularning har biriga alohida-alohida to'xtab o'tish va tahlillar berishga to'g'ri keladi (10:52). *Arxisema* – ma'nolar tizimida nomlanayotgan predmetni qaysidir sinfga mansubligini bildiruvchi eng umumiyl, mavhum semadir (11:12). V.G.Gak uni "asosiy sema" deydi va ma'lum bir obyektlar belgisi, xususiyatini aks ettiradi deya izohlaydi"(12:14), Sh.Raxmatullayev esa "to'ng'ich bosh ma'no" deya ataydi va shunday ta'rif beradi: "Bir leksemaning leksik ma'nolari tizimidagi birlamchi leksik ma'no to'ng'ich bosh ma'no deyiladi"(13:60). Arxisema bir semantik maydonga mansub bo'lgan leksemalar sememasi uchun umumiyl bo'lgan, ularni o'zaro birlashtiruvchi semadir. U leksemalarni yagona semantik turga birlashtiradi.

*Integral sema* termini dastlab fransuz tilshunosi B.Potye tomonidan (14: 30), keyin unga ergashgan holda V.G.Gak tomonidan tilga olindi (15:73). Ular bunda ma'lum semantik maydonga mansub leksemalar sememasi uchun umumiyl bo'lgan semani arxisema deb bilgani holda, o'sha semantik maydonning kichik guruhi (maydonchalari) ga mansub leksema sememalari uchungina umumiyl bo'lgan semani *integral sema* sifatida talqin qiladilar. Bir integral semaga ega holda kichik maydonni tashkil qiluvchi leksema sememalari hamma vaqt o'zaro paradigmatic munosabatda bo'ladi, deydi M.Mirtojiyev (16:54) . Demak, integral semalar ma'lum leksik-semantik guruhg'a mansub leksemalar sememalarini birlashtiruvchi semalardir.

Ierarxik tartibning uchinchi qatoridan *differensial semalar* o'rinn oladi. Integral semadan farqli o'laroq, u sememalardagi o'zaro aloqador semalarning farqli jihatini ko'rsatadi. Shuning uchun ham uni ba'zi tilshunoslar farqlovchi sema, deb nomlaydi.

Ular bir turga mansub, farqlovchi semalardir, ya'ni predmetning alohida belgilarini aks ettiradi, arxisemani konktretlashtiradi va nominatsiya predmetini qandaydir turga taalluqli qiladi (17:12).

Semalar ierarxik pog'onasining to'rtinchi o'rnidagi *potensial semalar* joy oladi. I.V. Arnold potensial semalarni qo'shimcha, majburiy bo'Imagan, to'ldiruvchi, birlamchi atashga kirmaydigan, biroq derivatsiyalar, hosila nutqda ishlatila olinadigan semalar sifatida ta'riflaydi (18:55). T.V. Jerebilo esa "Potensial semalar – konkret bir matnda paydo bo'luvchi semalardir" deya ta'rif beradi (19:322). Demak, voqelikning namoyon bo'lishi aks etgan denotativ ma'nuning komponenti tarkibi *axisema*, uning tarkibini ochib beruvchi *differensial semalar*, ularni boshqa sememalar bilan bog'lab turuvchi integral semalar va shuningdek, *potensial semalardan* tashkil topadi. *Ifoda (konnotativ) semasi* semema tarkibidagi turli qo'shimcha ma'no, uslubiy bo'yoq, qo'llanish doirasi, davr va shaxsiy munosabatni atovchi semadir.

Sememalar semalarga ko'ra bir-birlari bilan oppozitsiyalar hosil qiladilar (20:117).

V.G. Gak tomonidan ishlab chiqilgan misol namunasida *foot/oyoq* leksemalarining sememalari o'tasidagi oppozitsiyalarni quyidagi jadvallar asosida ko'rib chiqamiz:

2-jadval

<b>Foot otining sememalari</b>	<b>Arxisema</b>	<b>Integral sema</b>	<b>Differensial sema</b>	<b>Potensial sema</b>
oyoqning inson yoki tik turuvchi hayvon, yoki yurganda bosuvchi to'piqdan pastki qismi	<i>tana a'zosi</i>	<i>pastki qism</i>	<i>oyoqning pastki qismi</i>	<i>Holat</i>
Eng quyi qism, tub	<i>quyi qism</i>	<i>pastki qism</i>	<i>vertikal pastki qism</i>	<i>asos</i>
boshdan quyi yoki uning aksi bo'lgan taraf	<i>Quyi qism</i>	<i>Pastki qism</i>	<i>gorizontal pastki qism</i>	<i>tugallanish, intiho</i>
33,48 sm.ga teng o'lchov birligi	<i>tana a'zosi</i>	<i>o'lcham</i>	<i>uzunlik o'lchami</i>	<i>eng kichik miqdor</i>

3-jadval

<b>Oyoq otining sememalari</b>	<b>Arxisemalar</b>	<b>Integral sema</b>	<b>Differensial sema</b>	<b>Potensial sema</b>
Odam, hayvon, qush va umuman jonli organizmlar gavdasining tayanib turishi va yurishi yoki o'rmalashi uchun xizmat etadigan a'zo	<i>tana a'zosi</i>	<i>gavdani tayab, turishi yoki yurishi uchun xizmat etuvchi a'zo</i>	<i>Odam va jonzotlarning tayanch-harakat a'zosi</i>	<i>holat, munosabat</i>
Stol, stul, so'ri, karavot kabi buyumlarning yerga tayanib turuvchi qismi, moyasi	<i>buyumlearning tayanch qismi</i>	<i>tayab turuvchi qism</i>	<i>buyumning tayanch qismi</i>	<i>mustahkamlik</i>
oxir, odoq	<i>oxir</i>	<i>tugallanish</i>	<i>yo'lning tugallanishi</i>	<i>chegara</i>
fasl, davr va sh.k.ning oxiri, tugayotgan payti	<i>oxir</i>	<i>tugallanish</i>	<i>vaqtning tugallanishi</i>	
chet, chekka, quyi tomon, etak	<i>oxir</i>	<i>tugallanish</i>	<i>chegaraning tugallanishi</i>	
uyning, xonaning eshikka yaqin o'rni, moyak	<i>oxir</i>	<i>tugallanish</i>	<i>joyning tugallanishi</i>	<i>kamtarinlik</i>

O'zbek tilida oyoq deb ataluvchi yana bir leksema bor. Lug'atlarda unga shunday ta'rif beriladi: Oyoq – esk. 1. Kosa, idish. 2. Qadah. *Achchig'lanma bek yigit...shiringina taom qilib beraman, bir-ikki oyoq bo'za ham keltiraman.* Oybek. Navoiy (21:92) Bu so'z biz tahlil qilayotgan oyoq leksemasi bilan umumiy semalarga ega emas. Ular bir-biri bilan omonimik bog'langan. "Kosa, idish" ma'nosidagi oyoq so'zi hozirda iste'moldan chiqib ketgan va "idish-oyoq" juft so'zi tarkibida ishlatiladi (22: 250).

## TILSHUNOSLIK

Semantik jihatdan yaqin so'zlarning taqqoslanishida doimo taqqoslanayotgan so'zlardagi bir xil bo'lgan semalar ajratib olinadi. Bunday semalar *integral semalar* deyiladi. 1- jadvaldan ko'rinish turibdiki, foot leksemasining 1-, 2-, 3- sememalari *quyi qism* integral semalariga ega. 4- va 5- sememalar esa *o'lchov birligi* integral semasiga ega. Taqqoslanayotgan so'z (semema) larning ma'nosini farqlovchi semalar *differensial semalar* deyilishini aytib o'tdik. Foot leksemasining 1-LSVning 2- va 3-LSV dan farqlovchi semasi *oyoqning pastki qismi* differensial semasidir. 2-LSV va 3- LSVlardagi differensial semalar *tik holatdag'i pastki qismi* va *yotiq (o'r'in, karavot) holatdag'i pastki qismidir*. *Uzunlik* va *she'riy vazn* 5-va 6-LSVlarning differensial semalaridir.

Taqqoslanayotgan so'zlarda integral semalar qanchalik ko'p bo'lsa, ular mazmun jihatidan shunchalik bir-biriga yaqin bo'ladi, va aksincha, ularning differensial semalari qanchalik ko'p bo'lsa, ma'no jihatidan bir-biriga yaqinligi shunchalik kamayadi. Foot leksemasining dastlabki 3ta LSVlari ham integral, ham differensial semalarga ega bo'lgan holda 4- va 5- LSVlarda ular bilan bog'lovchi sema yo'q ekanligini ko'rishimiz mumkin. Boshqa semalarning barchasi ular uchun differensialdir va tabiiyki, ma'no jihatdan yaqinligi kuchsizlangan.

So'zlarning ma'nolaridagi differensial (farqlovchi) semalar so'zning ma'nosini unga semantik jihatdan yaqin bo'lgan so'zlardan farqlovchi semalardir. Masalan, *footstone (qabr toshi)*, *footlocker (karavot sandiqchasi)* so'zlar 3-LSV ga tegishli so'zlar bo'lib, "yotiq narsaning quyi qismi" differensial semasiga ega. *The findings in this report may serve as a footstone for further research into this promising medicinal plant (Bu maqoladagi yangiliklar ushbu shifobaxsh o'simlikning kelgusi tadqiqotiga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin)* gapidagi footstone so'zi "poydevor" potensial semasiga ega. Buni anglash uchun esa *footstonening* yana bir, qurilish terminlariga xos bo'lgan "devorli tomlarning ostdag'i tayanch tosh" ma'nosini bilish lozim. Uni bilmaslik esa gapni mutlaqo noto'g'ri talqin qilishga olib keladi. Bu sememalarni taqqoslash *tik (vertikal) narsaning quyi qismi* va *yotiq (horizontal) narsaning quyi qismi* differensial semalari va *oyoqning quyi qismi* integral (birlashtiruvchi) semasini ajralishiga olib keladi.

*Tana a'zosi* arxisemasi *foot/oyoq* leksik-semantik guruhiга mansub so'zlarni birlashtirib turadi, shu jihatdan arxisemani integral sema, deya olamiz. Chunki ularning barchasi ushbu semaga implikatsion bog'langan. *Footnote* (snoska, izoh) va *foothill* (tog' etagi) so'zlarida integral sema *quyi qismi*, biroq u, o'z navbatida, balandroq darajadagi sememaga differensial bo'lib qolishi mumkin.

Shuningdek, (*joining*) *oyoq tarafi* semasi *footlocker* (karavot sandig'i), *foot couple* (raqs safigadi eng oxirgi juftlik), *footboard* (karavotning oyoq tarafidagi to'siq taxtasi), *footrail* (stol yoki o'rindiplarda oyoqni qo'yish uchun o'rnatilgan tayoq) so'zlarini birlashtiradi, lekin *footlocker* va *foothill* (tog' etagidagi balandlik, qir) so'zlarini farqlaydi. Ya'ni bitta sema ham birlashtiruvchi, ham farqlovchi funksiyalarni bajarishi mumkin.

*Foot LSV 1* uchun (*be*) *light on one's feet – oyog'i yengil bo'lmoq* (*tez va viqorli tarzda xarakatlanmoq*) iborasida o'z aksini topgan *chaqqon*, *viqorli* semalar potensial semalarga misol bo'la oladi (*He's very light on his feet for such a big person- U gavdasiga nisbatan juda chaqqon*). Lekin Oyoq LSV 1 sememasiga tegishli "yengil oyoq" birikmasida *buzuq, fohisha* potensial semasi mavjud. Ya'ni oyoqqa nisbatan *yengil* sifati har ikkala tilda boshqacha talqinda qo'llaniladi. "*oyoqqa turmoq*" birikmasining 3 ta semasi mavjud: 1) *sog'aymoq* 2) *isyon qilmoq* 3) *iqtisodiy tiklanmoq*; "*oyoqqa turg'izmoq*" birikmasida ham 1) *katta qilmoq*, 2) *chorlamoq*, 3) *iqtisodiy mustaqil bo'lishga yordam bermoq* potensial semalari mavjud.

Konnotativ semalar (ifoda semalari, baho semalari) leksema sememasidagi ikkinchi hodisa bo'lib, u nomlanayotgan voqelikka munosabat bildiruvchi semantik komponent sanaladi. Konnotativ sema (ifoda semalari) semema tarkibidagi uslubiy ma'no qirralaridir. Ular leksemalarning atashdan, nomlashdan tashqari, shaxsiy munosabatlarni ifodalashga yoxud shu leksemalarning qo'llanish doirasini belgilashga xizmat qiladi. Ba'zan semantik tarkibida qo'shimcha ma'no qirrasi bo'lmagan leksemalar o'zi qo'llangan kontekst yoki nutqiy muhit talabi bilan uslubiy semali leksemaga aylanadi. Bu hodisa leksemaning o'ziga xos bo'lmagan kontekstual qo'llanishi tufayli sodir bo'ladi. Konnotativ semalarda insonning nomlanayotgan konsept yoki tilga olingan leksema tufayli bildiradigan ixtiyoriy va hissiy munosabatlari mujassamlashadi. Masalan: sifatli birikmalarda: *og'iroyoq-* homilador, *shumoyoq, shumqadam* – tashrifi omadsiz, *yalangoyoq, kambag'al, oyog'i chaqqon* ma'nolarini ifodalaydi. Fe'lli birikmalarda: *oyoq osti qilmoq, oyoq osti bo'lmoq, toptamoq*,

*oyog'ini uchida ko'rsatmoq, oyog'idan chalmoq, oyoq tiramoq, yuziga oyoq qo'ymoq, oyog'iga bolta urmoq kabi "salbiy" komponenetli semalar, oyoqqa turmoq, oyoqqa qo'ymoq, oyog'i olti, qo'li yetti bo'lmoq kabi iboralarda "ijobiy" komponentli semalar mavjud.*

### XULOSA

Ingliz va o'zbek tilidagi "foot/ oyoq" leksemasining komponent tahlil usuli yordamidagi struktur-semantik tadqiqi qarindosh bo'limgan ikki xalqning olamni lisoniy tasvirlashida "foot/oyoq" konseptining alohida tutgan o'rni haqida ma'lum xulosalar chiqarishimizga yordam beradi. Xususan, u har ikkala xalq vakillarining olamni va o'zining unda tutgan o'rnini anglashini, somatizmlar orqali boshqa referentlar bilan o'rnatadigan aloqalarini aks ettiradi. Bu jihatdan "foot/oyoq" somatizmi yetakchi o'rnlardan birini egallaganligi bu leksema derivatlarining rivojlangan tizimida o'z tasdig'ini topgan. Foot/oyoq leksemalarining semantik strukturasini tahlil qilish ularning leksik-semantik variantlarini aniqroq tarzda chog'ishtirishga va turli so'zlarni bir qator leksik-semantik guruhlar va semantik maydonlar doirasida, imkon darajasida guruhlashga izn beradi. Bu esa tadqiqotimizning kelgusi bosqichlari uchun muhim zamin hozirlaydi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. – Andijon, 2009. – B.136.( Nurmonov A. Structural linguistics: roots and branches. -Andijan, 2009.-p.136)
2. Попова З.Д., Стернин И.А. Основные черты семантико-когнитивного подхода к языку. – 2006. – С.9. (Popova Z.D., Sternin I.A. Main features of semantic-cognitive approach to a language. -2006. -p.9)
3. Матвеева Т. В. Полный словарь лингвистических терминов. – Ростов н/Д: Феникс, 2013. – Стр. 406.(Matveyeva T.V. Advanced dictionary of linguistic terminology. -Rostov upon Don: Fenix,2013. -p.406.)
4. Ельмслев Л. Пролегомены к теории языка // Новое в лингвистике. Вып. 1. - М.: Радуга, 1960. С.130.( Yelmslev L. Prelegomena to the theory of the language// New in the linguistics. Issue 1.-Moscow: Raduga, 1960.-p.130)
5. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Б. 45. (Khojiyev A. Dictionary of linguistic terminology. - p.45)
6. Виноградов В.В. История русских лингвистических учений. 2-е изд., испр. и доп. – М.: Высшая школа, 2005.-С.75 (Vinogradova V.V. History of Russian linguistic teachings. 2<sup>nd</sup> edition, -Moscow: Vissnaya shkola, 2005.-p.75)
7. Собиров А.Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамоили асосида тадқиқ этиш. Тошкент: Маънавият, 2004. – Б.60. (Exploring the lexical level of Uzbek language on the basis of the system of systems principle. Tashkent: Ma'naviyat, 2004.-p.60)
8. OALD. 10th editon. – P.615.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild. – Тошкент: 2007. – B.89.(Dictionary of the Uzbek language. 5<sup>th</sup> Volume. - Tashkent:2007.-p.89)
10. Mirtojiyev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Тошкент: 2010. – B.52.(Mirtojiyev M.M. Semasiology of the Uzbek language. -Tashkent. 2010.-p.52)
11. Стернин И.А., Саломатина М.С. Семантический анализ слова в контексте. – Воронеж, 2011. – Стр.12. (Sternin I.A., Salomatina M.S. Semantic analysis of the word in context. -Voronej,2011.-p.12)
12. Гак В.Г. Сопоставительная лексикология. – М: Моб 1977. – С.14. (Gak V.G. Comparative lexicology. - Moscow:1977.-p.14)
13. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent, 2006.B.60. (Rakhmatullayev Sh. Modern Uzbek literary language. -Tashkent, 2006.-p.60)
14. B. La definition semantique des les dictionnaires. – P.30.
15. Гак В.Г. К проблеме семантической синтагматики - С. 73.( Gak V.G. To the problem of semantical sintagmatics.p.73)
16. Mirtojiyev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent, 2010. – B.54. (Mirtojiyev. Semasiology of the Uzbek language .-Tashkent, 2010.-p.54)
17. Стернин И.А., Саломатина М.С. Семантический анализ слова в контексте. – Воронеж, 2011. – С.12. (Sternin I.A., Salomatina M.S. Semantic analysis of the word in context. -Voronej,2011.-p.12).
18. Арнольд И.В. Основы научных исследований в лингвистике: Учеб.пособие. – М.: Высш., 1991. – С.55. (Arnold I.V. Basics of scientific research in linguistics. Course book. -Moscow: Vissnaya shkola, 1991.-p.55)
19. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. – Назрань: Пилигрим, 2010. – С.322. (Jerebilo T.V. Dictionary of linguistic terminology. -Nazran: Piligrim, 2010.-p.322)
20. Попова З.Д., Стернин И.А. Общее языкознание. – Воронеж, 2004. – С.117-131.(Popova Z.D. Sternin I.A. general linguistics. -Voronej, 2004.-pp.117-131)
21. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild. – Toshkent, 2007. – B.92. .(Dictionary of the Uzbek language. 5th Volume. - Tashkent:2007.-p.92)
22. Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent, 2000. – B.250.(Rakhmatullayev Sh. Etymological dictionary of the Uzbek language.-Tashkent: 2000.-p.250)

#### Internet manba'lari:

1. <https://www.oup.elt>.
2. <https://www.collinsdictionary.com>.
3. <https://dictionary.cambridge.org>.
4. <http://www.macmillandictionary.com>.
5. <http://www.dictionary.com>.